




**TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKA ILMIY-METODIK MARKAZI**

O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI BAHOLASH VA MONITORING QILISH



KIRISH

*Baholash — o'quvchiga baho qo'yish
emas, unga keyingi qadamini ko'rsatishdir.*


Bugun biz juda ko'p eshitgan, balki har kuni ishlatadigan, lekin ba'zan bir-biri bilan aralashtirib yuboriladigan tushunchalarimiz haqida gaplashamiz.



Bugun siz . . .



Boshlovchi



O'quvchi



Ekspert



Hakamsiz



**O'quvchini baholaganda siz
uchun eng muhim narsa nima?**



Aslida bugungi treningimizning butun mazmuni mana shu soʻzlarning ichida yashiringan:

mezon

natija

rivojlanish

feedback

M u a m m o l i s a v o l

*Biz o'quvchiga 4 baho qo'yganimizda, u har doim ham **nega to'rt baho olganini** va **keyingi safar nima qilish kerakligini** tushunadimi?*

Bugun aynan shu savolga javob izlaymiz.



Siz uchun eng muhimi qaysi biri ?



Baho



Mezon




Rivojlanish



- **O'quvchi:** Ustoz, nega menga 4 ?

Siz o'qituvchi sifatida qanday javob bergan bo'lardingiz?



BAHO ≠ BAHOLASH

Baho — natija

Baholash esa — o'quvchining qayerda ekanini aniqlash, dalil yig'ish, tahlil qilish va keyingi rivojlanish yo'lini ko'rsatish jarayoni.

Bugun biz birgalikda aynan shu jarayonni bir o'quvchi misolida bosqichma-bosqich quramiz.



DIAGNOSTIK BAHOLASH

“Detektivlar”

Detektiv nimani qiladi?

Sizning vazifangiz — o‘quvchini hali **baholash** emas.

Avval uning qayerda ekanini aniqlash.

DIAGNOSTIKA = “QAYERDA?”



FORMATIV BAHOLASH

“TRENERLAR”

Endi o‘quvchining boshlang‘ich holatini bildik. Lekin bilishning o‘zi yetarlimi?

Endi o‘quvchini qanday rivojlantiramiz?

FORMATIV = “QANDAY RIVOJLANTIRAMAN?”



SUMMATIV BAHOLASH

“HAKAMLAR”

Endi o‘quvchi mashq qildi.

Topshiriqlarni yakunladi.

Biz uning yakuniy natijasini aniqlashimiz
kerak.

SUMMATIV = “QAYERGA YETDI?”



SELF-ASSESSMENT

FEEDBACK

“O‘QUVCHINING KO‘ZI”

Vazifa:

O‘quvchi o‘z nutqini o‘zi **baholashi** uchun 5 ta “Men. mezon tuzing.

Masalan:

“Men fikrimni aniq ifodalay oldim.”

“Men kamida 2 ta dalil keltirdim.”

SELF-ASSESSMENT “Men qanday ishladim?”



PEER-ASSESSMENT BUTUN AUDITORIYA

2 + 1

2 ta kuchli jihat

1 ta rivojlantirish tavsiyasi



-Endi aytingchi, “Yaxshi gapirdingiz” degan feedback foydalimi ?

-Ishtirokchilar...

-Nega ?



Qaysi biri chek-list, qaysi biri rubrika?



(A)

Mavzuni ochib berdi



Dalil keltirdi



Xulosa qildi



(B)

Mezon	3	2	1
<i>Mazmun</i>	<i>To'liq</i>	<i>Qisman</i>	<i>Yetarli emas</i>
<i>Izchillik</i>	<i>Mantiqiy</i>	<i>Ayrim uzilishlar</i>	<i>Tartibsiz</i>
<i>Ravonlik</i>	<i>Ba'zan to'xtaydi</i>	<i>To'xtaydi</i>	<i>Ko'p to'xtaydi</i>




MONITORING

Ularga qanday pedagogik yordam kerak deb o'ylaysiz?

O'quvchi	Mazmun	Izchillik	Lug'at	Ravonlik
Ali	3	2	3	2
Vali	3	3	2	3
Zebo	2	3	3	1
Madina	3	3	3	3

MONITORING HALQASI



X U L O S A

Bugun biz treningimizni bir o'quvchining nutqini eshitishdan boshladik. Lekin shu bitta nutq bizni **diagnostik baholashga** olib keldi. **Diagnostika** esa bizni **formativ baholashga**, formativ baholash o'z navbatida rivojlanishga sabab bo'ldi. Keyin **summativ baholash** orqali natijani, **self-assessment** orqali o'quvchining o'zini **baholashini**, shuningdek, **peer-assessment** orqali tengdoshining feedback berishini ko'rdik.

Rubrika va **chek-list** orqali baholashni aniq va shaffof bo'lishiga erishdik. Va nihoyat, **monitoring** orqali:

“Endi nima qilamiz?” degan savolga javob berdik.



**Ertaga nutqiy kompetensiyani baholashda nimani
o'zgartirishga qaror qildingiz ?**



O'QUVCHILARNING NUTQIYKOMPETENSIYALARINI BAHOLASH VA MONITORING QILISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI




Mavzuning dolzarbligi

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish va ularni xolis baholash ta'lim sifatini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. O'quv jarayonining samaradorligi va natijadorligi ko'p jihatdan ta'lim maqsadlari, o'qitish metodikasi hamda baholash tizimining o'zaro diagnostik va funksional mutanosibligiga bog'liq. Ushbu ma'ruzada o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini baholashning nazariy-metodologik va amaliy jihatlari, baholash turlari hamda zamonaviy baholash instrumentariylari (rubrikalar, o'z-o'zini baholash va qayta aloqa vositalari) atroflicha tahlil qilinadi.

“Baholash o'qitish va ta'lim maqsadlariga erishish o'rtasidagi ko'prikdir”.


*Dylia
Vilam*

Ma'ruzaning asosiy maqsadi



O'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini baholash va monitoring qilishning pedagogik nazariya hamda amaliyotdagi o'rnini ko'rsatib berish, baholashning zamonaviy tamoyillari, turlari va mexanizmlari hamda rubrikalar tayyorlash va tatbiq etish bo'yicha metodik kompetentlikni shakllantirishdan iborat.

- Pedagogikadagi "ta'limning oltin uchburchagi" konsepsiyasi doirasida baholashning o'rnini ilmiy va konseptual tahlil qilish.
- Baholashning ta'limiy, diagnostik va pedagogik vazifalarini tizimlashtirish.
- Baholash jarayoniga qo'yiladigan metodologik tamoyillarni yoritib berish.
- Baholashning asosiy turlari (formativ, summativ, diagnostik, normativ va kriterial) va ularning nutqiy kompetensiyani shakllantirishdagi xususiyatlarini qiyosiy o'rganish.
- O'quvchilarning o'z-o'zini va juftlikda baholash metodikalarining amaliy samaradorligini asoslash.
- Nutqiy kompetensiyalarni baholash uchun tekshiruv va o'lchov vositasi bo'lgan analitik va yagona balli rubrikalarni model ko'rinishida ishlab chiqish



Baholash jarayoni ta'lim berish va kutilgan o'quv natijalariga erishish o'rtasidagi diagnostik va korreksion ko'priklarni vazifasini bajaradi. Zamonaviy pedagogikada ta'lim jarayonining barqarorligi **"ta'limning oltin uchburchagi"** modeli orqali tushuntiriladi:

1 komponent (Ta'lim mazmuni): Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va rejalari — *"Nimani o'qitamiz?"* degan savolga javob beradi.

2 komponent (O'qitish texnologiyasi): Metodika, pedagogik texnologiyalar va o'quv materiallari — *"Qanday o'qitamiz?"* degan savolni yoritadi.

3 komponent (Natijalar nazorati): Baholash usullari, o'lchov vositalari va monitoring — *"Maqsadga erishganimizni qanday bilamiz?"* degan savolga javob beradi.

Sifatli ta'lim natijasiga erishish uchun ushbu uchta komponent bir-biri bilan pedagogik-struktural jihatdan uzviy va uyg'un tarzda tashkil etilishi talab etiladi.

Baholash — ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalari shakllanganlik darajasini o'lchov mezonlari vositasida aniqlash hamda tahlil qilish jarayonidir.

BAHOLASHNING PEDAGOGIK MAZMUNI UNING ZIMMASIGA YUKLATILGAN QUYIDAGI ASOSIY VAZIFALAR ORQALI NAMOYON BO'LADI:



Diagnostic vazifa

O'quvchilarning bilim va kompetensiyalari darajasini, o'zlashtirishdagi uzilishlar va bo'shliqlarni aniqlash.



Tarbiyaviy vazifa

O'quvchida mas'uliyat, intizom, o'z ustida ishlash, qat'iyat va metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirish.



Nazorat vazifasi

O'quv topshiriqlarining bajarilish sifatini hamda darsga bo'lgan munosabatni doimiy ravishda monitoring qilib borish.



Xulosalash vazifasi

Milliy o'quv davri yakunida o'zlashtirish ko'rsatkichlarining samaradorligi va dinamikasini tahlil qilish



Prognozlash va rejalashtirish vazifasi

Baholash natijalari asosida pedagogik faoliyatni qayta ko'rib chiqish, kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tuzatuvchi va rivojlantiruvchi choralarni belgilash.



Motivatsion vazifa

O'quvchilarni o'rganishga rag'batlantirish va sog'lom akademik raqobat muhitini yaratish.

BAHOLASH JARAYONI OBYEKTIV VA SAMARALI KECHISHI UCHUN QUYIDAGI TAMOYILLARGA QAT'IIY AMAL QILINISHI SHART:

1

Validlik

Baholash vositalarining aynan tekshirilishi ko'zda tutilgan kompetensiyaga mos kelishi

2

Aniqlik va shaffoflik

Baholash mezonlari va kutilayotgan natijalarning oldindan o'quvchilarga ochiq e'lon qilinishi

3

Ishonchlilik

Baholash natijalarining barqarorligi va tasodifiy omillarga bog'liq emasligi

4

Izchillik va tizimlilik

Baholashning o'quv jarayoni bilan uzviy, bosqichma-bosqich va uzluksiz kechishi

5

Adolatlilik va xolislik

Subyektiv yondashuvlardan xoli holda barcha uchun teng imkoniyat yaratish

6

Qayta aloqani yo'lga qo'yish

Baholash natijalari o'quvchining rivojlanishi uchun konstruktiv takliflar bilan ta'minlanishi

BAHOLASH JARAYONI AYNAN QANDAY MAQSADNI KO'ZLAB AMALGA OSHIRILAYOTGANIGA KO'RA, BIR NECHA TURLARGA BO'LINADI:



Formativ (shakllantiruvchi) baholash

O'quvchining kunlik o'zlashtirish jarayonini kuzatish, o'rganishdagi bo'shliqlarni o'z vaqtida aniqlash va metodik yordam ko'rsatishga qaratilgan.



Summativ (xulosalovchi) baholash

Muayyan o'quv davri (chorak, yarim yil, o'quv yili, bosqich) yakunida o'quvchilarning kompetensiyani egallash darajasini xulosalash, saralash hamda keyingi ta'lim bosqichiga o'tkazish maqsadida o'tkaziladi



Diagnostik baholash

O'quv jarayoni boshlanishidan avval o'quvchining boshlang'ich tayyorgarlik darajasini aniqlash va kelgusi ta'lim trayektoriyasini to'g'ri loyihalash uchun xizmat qiladi.



Normaga asoslangan baholash


O'quvchining natijalarini muayyan guruh (masalan, sinfdoshlari yoki tengdoshlari) ko'rsatkichlari bilan solishtirish orqali uning umumiy guruhdagi o'rnini va reytni aniqlashga yo'naltiriladi.



Mezonli (kriterial) baholash

O'quvchining ko'rsatkichlarini boshqa o'quvchilar bilan emas, balki oldindan belgilangan aniq standart va mezonlar bilan solishtirish. Bu tur o'qituvchining subyektivizmini kamaytiradi.

O'z-o'zini baholash (self-assessment)



Bugungi kunda ta'limda ***o'z-o'zini baholash (self-assessment)*** turiga juda ko'p murojaat qilinmoqda. Bunday baholash o'quvchini o'z faoliyatini tahlil va tanqid qilish, erishgan natijalarini baholash hamda o'z-o'zini nazorat qilishga asoslanadi. Bu orqali o'quvchida mas'uliyat, javobgarlik va o'rganishga rag'bat ortadi; o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholash va o'z kuchiga ishonish shakllanadi.

O'quv mashg'ulotlarida o'z-o'zini baholashning quyidagi usullaridan foydalanish mumkin:

- Baholash rubrikalari
- O'z faoliyatini nazorat va tahlil qilib borish uchun kundaliklar
- Portfolio (o'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda tuziladigan turli ishlar ko'rgazmasi, yig'ma jild)
- Chiqish kartochkalari (dars so'nggida o'quvchi uchun o'rganganlarini mustaqil tahlil qilish va baholash uchun tarqatiladi)
- Svetafor (o'rganilgan o'quv materiali bo'yicha o'quvchilarning tushunish darajasini aniqlab olishning sodda va tezkor usuli)
- Juftlikda baholash / DIRT (Dedicated improvement and reflectopn time)

O'Z-O'ZINI BAHOLASH USULLARI

Chiqish kartochkalari namunasi:

Menimcha, darsning uchta muhim qismi quyidagilar edi:
1)...2)...3)...

Menga darsdagi quyidagi ikki jihat juda ham ma'qul bo'ldi:
1)...2)...3)...

Men bermoqchi bo'lgan yagona savol: 1)

Peer-assessmentda o'quvchiga quyidagi shablonlarni taklif etish mumkin: "Sinfdoshingni ishi bo'yicha ikkita ijobiy sharh va yaxshilash uchun bitta taklif yoz"; "To'rtta xato va tuzatishlar jadvalini tuz". Baholashdan keyin esa "Qabul qilaman / o'zgartiraman" jadvali ustida ishlash mumkin.

No	Xatolar	Tuzatish
1.	Matn uchun tanlangan sarlavha mazmunga mos emas.	Quyidagi sarlavhalardan biri tanlanganda ko'proq mos tushgan bo'lar edi: ...
2.		
3...		

BAHOLASH RUBRIKALARI NIMA?



Baholash rubrikasi – bu, o'quv faoliyatida qo'llaniladigan, baholash mezonlari (kriteriyalar) va samaradorlik darajasini aniq, yaqqol ifodalab beradigan vosita, tizimli yo'riqnoma.

Har bir vazifani bajarishda aynan nima talab qilinayotganligi va kutilayotganligini aniq ko'rsatib beradi.

Baholash jarayonini shaffof va obyektiv bo'lishini ta'minlaydi.

Rubrikalar odatda jadval ko'rinishida taqdim etiladi.

Quyidagi qismlardan iborat bo'ladi: baholash aspektlari / mezonlar, sifat darajalarining tavsifi, samaradorlik darajalari / baholash shkalasi.

Baholash rubrikalarining universal, yaxlit, analitik, yagona mezonli, maxsus rubrikalar singari turlari mavjud. Ta'lim amaliyotida ko'proq analitik va yagona balli rubrikalardan foydalaniladi



Yagona balli rubrika namunasi (yozma nutq ko'nikmasini baholash)

Mezonlar	Talab	Kamchiliklar (yaxshilanishi kerak bo'lgan jihatlar)	Yutuqlar (belgilangan me'yordan yuqori ko'rsatkichlar)
Matn mazmundorligi va mantiqiylik	Mavzu yetarli darajada ochib berilishi, fikrlar mantiqiy jihatdan bir-biriga bog'langan, asoslangan va tugal bo'lishi lozim.		Mavzu keng ochib berilgan, fikrlar hayotiy faktlar bilan dalillangan, o'quvchining shaxsiy yondashuvi sezilib turibdi.
Izchillik va tizimlilik	Matnda kirish, asosiy qism va xulosa mavjud bo'lishi, jumlar izchil, xatboshilar o'zaro bog'langan bo'lishi kerak.	Matnning xulosa qismi mavzuning umumiy mazmuniga unchalik mos emas.	
Lug'at boyligi	So'zlarni kontekstga mos tarzda tanlash, nutqni boyituvchi birliklardan (maqol, ibora, sinonimlar va b.) o'rinli foydalanish zarur.		
Imloviy savodxonlik	Jumlar grammatik jihatdan to'g'ri tuzilishi, imloviy, punktuatsion xatolarga yo'l qo'ymaslik lozim.		

ANALITIK RUBRIKA

Analitik rubrika namunasi (esseni baholash)

Mezonlar	A'lo (5-6 ball)	Yaxshi (3-4 ball)	Qoniqarli (0-2 ball)
Mazmun va muammo tahlili	Muammo chuqur tahlil qilingan, barcha savollarga to'liq javob berilgan.	Muammo yoritilgan, lekin ba'zi o'rinlarda umumiy gaplar bilan cheklanilgan.	Mavzudan chetlashish bor yoki muammo tushunarsiz bayon etilgan.
Yechimlar va ularni dalillash	Yechimlar realistik, har bir yechim misollar bilan asoslab berilgan.	Yechimlar taklif etilgan, biroq ularning amalga oshish mexanizmi yuzaki.	Yechimlar muammoga bog'lanmagan yoki o'ta sodda.
Akademik halollik va sun'iy intellekt nazorati	Matn to'liq talabning shaxsiy uslubida yozilgan. Shaxsiy tajriba yoki o'ziga xos misollar bor. Standart SI qoliplari yo'q.	Matnda SI yordami seziladi, lekin o'quvchi uni qayta ishlagan va o'z fikrlarini qo'shgan.	Matn sun'iy intellekt tomonidan yozilgani aniq seziladi (hissiz gaplar, shaxsiy munosabat yo'qligi).
Tuzilma va mantiqiy izchillik	Har bir xatboshi mantiqiy davomiylikka ega. Kirish va xulosa bir-birini to'ldiradi.	Tuzilmada biroz izchillik yetishmaydi, o'tish so'zlari takroriy.	Matn tartibsiz, fikrlar bir-biriga qarama-qarshi.
Til, uslub va grammatika	Leksik birliklardan unumli foydalanilgan, jumlarlar grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan, imloviy, ishoraviy xatolar yo'q.	2-3 o'rinda imloviy va punktuatsion xatoliklarga yo'l qo'yilgan.	So'z boyligi cheklangan, xatolar matnni o'qishni qiyinlashtiradi, uslub talablariga javob bermaydi.

1-topshiriq. Baholash tamoyillarining mazmunini tushunish va qo'llay olish.

Quyida berilgan keyslarni tahlil qiling, baholashning qaysi tamoyillaridan chetga chiqilganini izohlang. O'z yechimingizni taklif qiling.

1. O'qituvchi o'quvchilarning yozma nutq ko'nikmalarini rivojlanganlik darajasini tekshirish maqsadida diktant oldi. O'quvchilarning katta qismi imloviy, ishoraviy xatoliklarga yo'l qo'yganligi sababli past baho oldi. Ularning yozma nutq ko'nikmasi yaxshi rivojlanmagan degan xulosaga kelindi. Qaysi tamoyil ishlamadi?

2. Oldingi darsda o'quvchilarga she'r yodlash vazifasi berilgan edi. O'quvchi uy vazifasini so'rashni boshladi. Birinchi o'quvchi she'rni to'liq va ifodali aytdi, faqat bir o'rinda tutilib qolganligi sababli, o'qituvchi unga "4" baho qo'ydi. Ikkinchi o'quvchini she'rning ikki qatorini aytishi bilan to'xtatdi. U a'lochi, har doim vazifalarni tayyorlab kelishini, unga ishonishini aytib "5" baho qo'ydi. Qaysi tamoyil ishlamadi?

3. O'qituvchi o'qib tushunish ko'nikmasini tekshirish maqsadida o'quvchilarga matn tarqatdi. O'qish uchun belgilangan vaqt tugagandan keyin matn yuzasidan savollar tarqatildi. Savollar asosan matnni grammatik jihatdan tahlil qilishga qaratilgan, "Qo'shma gap turini aniqlang", "Yasama so'zni toping" singari savol va topshiriqlardan iborat edi. Qaysi tamoyil ishlamadi?

4. O'qituvchi chorak yakunida 10-sinflardan argumentli esse (yozma nutq) oldi. Daftarlarni tekshirib, keyingi darsda shunchaki "75 ball", "85 ball" degan baholarni e'lon qildi. O'quvchilar nima sababdan bu ballni olganini, esse tarkibidagi qaysi mezon uchun ball chegirilganini bilishmadi. Baholash mezonlari (rubrikalar) darsdan oldin ham, keyin ham o'quvchilarga ko'rsatilmadi. Qaysi tamoyil ishlamadi?

2-topshiriq. Formativ va summativ baholash turlarini qiyoslash, bu bo'yicha topshiriqlar tuzish va qo'llay olish.

Nutqiy mavzu: "Mening mahallam". Lingvistik mavzu: sinonimlar, olmosh va uning turlari. Ushbu mavzu doirasida formativ va summativ baholash uchun topshiriq namunasini tuzing.

	Formativ baholash uchun topshiriq	Summativ baholash uchun topshiriq
Topshiriq maqsadi		
Topshiriq sharti		
Bajarish shakli		

Baholash rubrikalarini tuzish

1

1-guruh og'zaki nutq
ko'nikmasin bo'yicha topshiriq bering
va u asosida analitik rubrika
tayyorlangi baholash

2

2-guruh yozma nutq
ko'nikmasin bo'yicha topshiriq bering
va u asosida analitik rubrika
tayyorlangi baholash

3

Kamida 5 ta mezonni keltirib o'ting, sifat
darajalari yoki baholar shkalasini aniq
ko'rsating.

4-topshiriq. O‘z-o‘zini baholash va tahlil qilish.

Berilgan savollarga javob bergan holda dars davomidagi faoliyatingizni tahlil qiling va “5” ballik tizimda baholang

Mezonlar	Baho	Izoh
Dars davomida diqqat-e’tiborni jamlay olish		
Savol-javoblardagi faollik		
Mavzuni tushunganlik darajasi		
Nazariy bilimlarni amalda qo‘llay olish		
Umumiy baho		



Mavzu bo‘yicha yana o‘rganishni istar edim...



E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!